

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti



7491

ISSN: 2992-8982

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимжон Исандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant	
Optimizatsii operatsionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov	334
Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana	341
Fattahova Munisa Abduxamitovna	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA INNOVATSIYA VA RAQAMLASHTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI

Kambarova Sh. M.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Sirtqi fakulteti "Menejment va marketing" kafedrasи i.f.b.f.d. PhD



Annotatsiya: Maqloda mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning innovatsion shart-sharoitlari va chet el omillari bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanishga doir islohotlardan biri raqamlashtirish texnologiyalarni joriy qilish bo'lib, raqamlashtirish va innovatsiyaning kichik tadbirkorlik faoliyatida ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion tadbirkorlik, raqamlashtirish, autsorsing, subkontrakt, elektron tijorat, raqamlashtirish, venchur, lizing, innovatsiya OESD-iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti.

Аннотация: В статье исследуются инновационные условия развития малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике нашей страны и процессы, связанные с внешними факторами.

Одной из реформ, связанных с инновационным развитием предпринимательской деятельности, является внедрение технологий цифровизации, показано значение цифровизации и инноваций в деятельности малого бизнеса.

Ключевые слова: инновационное предпринимательство, цифровизация, аутсорсинг, субподряд, электронная коммерция, цифровизация, венчурный бизнес, лизинг, инновации ОЭСР-Организация экономического сотрудничества и развития.

Abstract: In the article, the innovative conditions for the development of small business and private entrepreneurship in the economy of our country and the processes related to foreign factors are researched.

One of the reforms related to the innovative development of business activity is the introduction of digitization technologies, and the importance of digitization and innovation in small business activity has been shown.

Key words: innovative entrepreneurship, digitalization, outsourcing, subcontracting, e-commerce, digitalization, venture, leasing, innovation OESD-Organization for Economic Cooperation and Development.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda va qo'llab-quvvatlash amaliyotini rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalaridan foydalangan holda boyitish va ijobji samara beruvchi usullarni mentalitet xususiyatidan kelib chiqib amaliyotga joriy etish shu kun talablaridan kelib chiqadi. Ushbu yo'nalishlarda ish faoliyatini olib borishda chet el tajribasi muhim ahamiyatga ega deb bilamiz.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi keyingi 30 yil ichida deyarli 70 % ga yetgan. Jumladan, bu ko'rsatkich AQSh da 38 foizdan 52 foizga, Yaponiyada 47 foizdan 55 foizga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida umumiy holda 58 foizdan 67 foizga yetgan.¹

Jahon Savdo Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta korxonalar ishbilarmon aholining 90 % dan ortig'ini, ish bilan ta'minlanganlarning 60–70% ini va YalMning 55% ini tashkil etadi. Bu o'z navbatida, kichik biznesning, ayniqsa hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida o'ta muhim soha ekanligini va uning xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishni taqozo etadi.

1 Kuliyev N. "Kichik va xususiy biznesni rivojlantirishda jahon tajribasidan foydalanish. "Iqtisod va ta'lif" ilmiy jurnal.- 2012. №4



“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qabul qilin-gan strategiyasida, respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 mldr. AQSh dollariga yetkazish, xususiy sektorning YALM dagi ulushini 80 % ga, eksportdagi ulushini 60 % ga yetkazish mo‘ljallangan. Tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalg qilish, iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish masalalari o‘rganildi.²

Kichik biznes subyektlarining davlat tomonidan bunday qo‘llab-quvvatlanishi xorijiy tadbirkorlar xalqaro bozorlarda katta raqobat ustunligiga ega bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda kichik biznes subyektlari mahsulotlarining 25.0 % dan ko‘prog‘i xalqaro bozorlarda raqobatbardosh hisoblanadi va bu salmoq yil sayin muttasil ortib bormoqda. Rivojlangan davlatlarda jahondagi eksport hajmining deyarli uchdan bir qismi kichik biznes subyektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. Jumladan, AQShda kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimida eksportga yo‘naltirilgan kichik firmalarga alohida e’tibor beriladi. Ushbu davlatda 231 mingtaga yaqin kichik firma o‘z mahsulotlarini tashqi bozorlarda realizatsiya qiladi. Kichik biznes subyektlari hissasiga mamlakat eksportining 30.0 % dan ko‘prog‘i to‘g‘ri keladi.

Eksportni kengaytirishni davlat strategiyasi AQShning Savdoni rivojlantirishni muvofiqlashtiruvchi qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va unda yuqori texnologiya va fan sig‘imiga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan kichik firmalarni qo‘llab-quvvatlash markaziy o‘rinni egallaydi. Ushbu qo‘mita tomonidan 2035 yilga borib kichik biznes subyektlarining mamlakat eksporti hajmidagi ulushini hozirgi 30,0 % dan 50% ga yetkazish strategik rejalarini ishlab chiqilgan.³

Eksportga yo‘naltirilgan kichik firmalarni qo‘llab-quvvatlash uchun, ayniqsa, Kichik biznes ma‘muriyatni katta imkoniyatlarga ega. Ushbu ma‘muriyatning kichik korxonalarning eksport imkoniyatlarini kengaytirishga uslu-biy, texnikaviy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko‘rsatishga da‘vat etilgan Xalqaro savdo departamenti tashkil etilgan. Departament tomonidan “Xalqaro savdo uchun kreditlar” dasturi ishlab chiqilgan.³

Kichik biznes rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida, ayniqsa innovatsion rivojlanishda muhim o‘rin tutadi. Kichik biznesning ko‘plab vazifalari qatorida uning innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishga moyilligini alohida ko‘rsatish mumkin. Ma‘lumki, innovatsiya (ingl. “innovation” – yangilik) – faoliyatda yangi texnologiya, mahsulot va turli xizmatlar, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko‘rsatish va boshqaruva ko‘rinishidagi yangiliklarning qo‘llan-lishini anglatadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda innovatsiyalarning nisbatan oson joriy etilishini, birinchidan, kichik biznesda iqtisodiy faoliyat ko‘lamining ixchamligi unda innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishning nisbatan qulayligi va kam xarajat talab etishiga imkon yaratadi. Kichik biznes korxonalari tashkiliy va boshqaruva tuzilmasining soddaligi innovatsiyalarni joriy etish bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilish jarayonlarining nisbatan qisqaligini ta‘minlaydi. Uchinchidan, sohada mulkchilik yakka shakllarining ustuvorligi innovatsiyalarni joriy etishdan manfaatdorlikning kuchli bo‘lishiga olib keladi. Masalan, ishlovchilar soni 1000 kishidan kam bo‘lgan AQSh kompaniyalarida 10 ming kishi band bo‘lgan firmalarga qaraganda yirik texnik yangiliklarni 17-marta ko‘proq ishlab chiqiladi.⁴ Kichik innovatsion biznesga ahamiyat bersak, AQSh kichik innovatsion firmalarida ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlariga xarajatlarning samaradorligi yirik korporatsiyalarga nisbatan 4 baravar yuqori. Bundan tashqari, kichik innovatsion biznes 1 nafar ishchiga to‘g‘ri keluvchi innovatsiyani yirik biznesga nisbatan 2.5 baravar ko‘proq yaratib, bir yil muddatga tezroq amalga oshiradi. Ayni paytda buning uchun mablag‘larni 75 % ga kamroq sarflaydi.⁵

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik biznes subyektlari eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish uchun xorij tajribasidan foydalanishni tadqiq qilishda tizimli tahlil, mantiqiy fikrlash, iqtisodiy-statistik umumlashtirish, tahlil va sintez, qiyosiy va omilli tahlil, jadval kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes subyektlarini eksport salohiyatini oshirish va ushbu soha uchun innovatsiya va raqamlash-tirishning ahamiyati va zururligi har bir korxonada muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan mavzu doirasida eksport salohiyati tushunchasiga ko‘plab iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari va fikrlari ko‘rsatib o‘tilgan.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi 28.01.2022-yildagi PF-60 farmoni <https://lex.uz/docs/5841063>

3 Abduraxmanova G. Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta‘minlash. –T. : “Iqtisodiyot”–2014. 114-b.

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/1371>

5 Yusupov B. O‘zbekistonda innovatsiya faoliyatini rivojlantirishda kichik tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish. TDIU mustaqil tadqiqotchi “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnal. №2-aprel, 2018-yil. www.interfinance.uz



- Eksport salohiyatini ko'p bosqichli o'rganishga qaratilgan yondashuvlar, ular eksport faoliyatining barsha darajadagi subyektlari – mamlakat iqtisodiyoti, alohida tarmoqlar, korxonalar, tovar va xizmatlarni o'rganishda qo'llanilishi mumkin. Ushbu yondashuv A. I. Volkova va I. A. Karachevning nuqtayi nazarini o'z ichiga olib, unga ko'ra "eksport salohiyatini tahlil etishda uchta daraja makrodaraja, mezodaraja va mikrodarajadagi salohiyatni ko'rib chiqishni taklif etadi". Shuningdek, ushbu yondashuvlar doirasida ichki omillar (eksport qilinadigan tovarlarning raqobatbardoshligini belgilovchi mikrodarajaviy omillar) va tashqi (makro va mezodarajaviy omillar) ajratiladi. Ular birgalikda iqtisodiy subyekt potensialining raqobatbardoshligini tavsiflaydi.⁶
- Eksport salohiyati resurslar va imkoniyatlar yig'indisi sifatida ifodalanadigan yondashuvlar. Ushbu yondashuvlar sanoat tarmog'i yoki korxona darajasiga ko'proq mos keladi. Masalan, M. S. Sichev tomonidan eksport salohiyati quyidagicha bayon etilgan: "eksport tovarlarini ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi turli xil resurslarni (tabiiy, mehnat, moddiy, moliyaviy, axborot va ulardan samarali foydalanishni (asosiy omil sifatida) ifodalovchi ichki salohiyat; tashqi salohiyat – subyektning marketing, logistika, xizmat ko'rsatish faoliyatida, tovari sotish jarayonida namoyon bo'luvchi imkoniyatlari va qobiliyatlaridir".⁷

TAHLIL VA NATIJALAR.

Eksportga yo'naltirilgan kichik firmalarni axborotlar bilan ta'minlash, maslahatlar berish, uslubiy qo'llab-quvvatlash uchun AQShda ko'p miqdorda elektron tarmoqlar amal qiladi. Shu jumladan:

- eksport tavakkalchiliklarini baholash va tahlil etish tizimi;
- eksportni texnikaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha sheriklik;
- eksportchilarni huquqiy qo'llab-quvvatlash axborot tarmog'i;
- eksportchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha sayt;
- savdo vositachiligi sayti;
- amaliy maslahatlar federal sayti;
- eksportni qo'llab-quvvatlash markazi va boshqalar.

Eksportga yo'naltirilgan kichik korxonalar davlat tomonidan har taraflama qo'llab-quvvatlanayotganliklari uchun ham AQShda bunday firmalar soni yiliga 10,0–12,0 %ga ularning eksport hajmi esa, 18,0% ga ortib bormoqda.⁸

Kichik biznes xizmati tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarga moliyaviy yordam ko'rsatadi. Uning kafolatlari asosida mamlakat barcha banklari tomonidan eksportga yo'naltirilgan kichik firma-larga 2 yildan 10 yilgacha muddatga 5,0 ming funt sterlingdan 100,0 ming funt sterlinggacha (ikki yil davomida muvaffaqiyatli tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotganlar uchun esa 250,0 ming funt sterlinggacha kredit ajratiladi. Ushbu ko'rsatkichni rivojlangan mamlakatlar bilan taqposlaydigan bo'lsak, kichik biznesning YalMDagi ulushi Fransiyada 62 foizni, Italiyada 60 %ni, Yaponiyada 55 foizni, Germaniyada 54 foizni, Buyuk Britaniyada 53 foizni, AQShda 52 foizni, Qozog'istonda 25,6 foizni, Rossiyada 20,0 foizni tashkil etadi.⁹

Bu ko'p jihatdan yirik korporatsiyalar uchun xamma narsani o'z kuchi bilan ishlab chiqarish manfaatli bo'lmay qolganligi bilan izohlanadi. Ular o'zlarini uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarishga ixtisoslashayotgan kichik biznes tuzilmalari bilan autsorsing va subkontrakte shartnomaviy aloqalar asosida hamkorlik qilmoqdarlar. Ayni paytda yirik kompaniyalar kichik firmalarni mashina-uskunalar, xom ashyo, materiallar bilan ta'minlashda yordam ko'rsatadilar, yangi texnologiyalarni joriy qilishga ham yordam beradi.

Mamlakatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan maxsus tashkilotlar tuzilgan. Ularning eng yetakchisi Fransiya tadbirkorlarining xarakati hisoblanadi. Bu xarakatga 400 nafar tarmoq federatsiyasini birlashtirgan kichik biznes konferensiysi ham kirgan.

2017-yilda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkilotining ustuvor yo'nalishlaridan biri raqamli asrda kichik korxonalarining raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini oshirish bo'ldi. 1-jadvalda ushbu yo'nalishda ko'rib chiqilgan asosiy ustuvorliklar keltirilgan.

2017-yilda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkilotining ustuvor yo'nalishlaridan biri raqamli asrda kichik korxonalarining raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini oshirish bo'ldi. 1-jadvalda ushbu yo'nalishda ko'rib chiqilgan asosiy ustuvorliklar keltirilgan.

⁶ Волкова А. И., Каравеев И. А. Факторы роста экспортного потенциала малого инновационного предприятия // Вестник Финансового университета. – 2016. – № 6. – С. 31–38.

⁷ Сичев М. С. Развитие методического обеспечения анализа и оценки экспортного потенциала предприятия: дис. ... канд. экон. наук. – Йошкар-Ола, 2012. – 156 с.

⁸ Abduraxmanova G. Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. – Т. : "Iqtisodiyot" –2014. 114-b.

⁹ Internet ma'lumotlari.



1-jadval: Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkilotining raqamli asrda kichik korxonalarning raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini oshirishning kichik ustuvorliklari¹⁰

Ustuvorlik	Asosiy yo'nalishlar
1. Kichik biznes korxonalarining global ishlab chiqarish zanjirida kengroq ishtirokini rag'batlantirish	Kichik korxonalarning global ishlab chiqarish zanjiriga kirishni va ishtirokini kuchaytirish bo'yicha ishlar. Kichik biznesning yirik bizes bilan hamkorlik yo'nalishlarini o'rganish asosida global ishlab chiqarish zanjirida qatnashishini faollashtirish. Asosiy xizmatlarni (logistika, moliya, elektron tijorat va boshqalar) qo'llab-quvvatlash uchun manfaatdor tomonlarni birlashtirish.
2. Kichik biznes uchun raqamli iqtisodiyotda qulay biznes muhitini yaratish	Davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti mamlakatlararo raqamli transformatsiya bo'yicha tajriba almashish. Axborot almashish, o'qitish, konsalting xizmatlari va biznes hamkorlarni tanlashda qo'llab-quvvatlash orqali kichik biznesning raqobatbardoshligini mustahkamlash.
3. Startap va innovatsion kichik korxonalarini rag'batlantirish	Startaplar va innovatsion kichik korxonalarga yo'naltirilgan barqaror ekotizimlarni rivojlantirish. Kichik korxonalarning innovatsiyalar yaratish qobiliyatini rag'batlantirish va raqobatbardoshligini mustahkamlash. Raqamli startaplar, kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi institutlar tarmog'ini yaratish.

Eksportni qo'llab-quvvatlash siyosatining yangi yo'nalishlariga ahamiyat bersak, bu borada AQShning tajribasi diqqatga sazovor, chunki milliy eksport tashabbusi (National Export Initiative, NEI)¹¹ doirasida qishloq xo'jaligining yangi tarifidan foydalangan holda qishloq xo'jaligi eksportini rag'batlantirish vositalari va choralar ishlab chiqilgan, qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqarish uchun ekologik yechimlar va qurilmalar eksportini qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yilgan. Transport infratuzilmasiga keng sarmoya kiritish AQShda hukumat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi – 2010-yildan beri TIGER dasturi doirasidagi investitsiyalar 1.2 milliard dollardan ortiqni tashkil etdi.

Jahon Savdo Tashkiloti (JST) tomonidan e'lon qilinib boriluvchi kichik biznesning xalqaro savdodagi ishtiroki to'g'risidagi hisobotlarida kichik biznes xalqaro bozorlarga chiqishda duch keladigan muammolar, shuningdek, ularning global savdodagi, xalqaro qo'shimcha qiymat zanjiridagi ishtiroki, xalqaro elektron tijorat va kichik biznes bilan bog'liq savdo siyosati muammolari yoritib boriladi.¹²

Xorijiy mamlakatlar tajribasi kichik biznes va xususiy tadbirdorlik sektori rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida hal qilinishi kerak bo'lgan qator muammolar – barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, milliy iqtisodiyotning innovatsiya salohiyatini shakllantirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish kabilarni hal qilish imkoniyatini berishini ko'rsatadi. Shu sababli, rivojlangan mamlakatlarning aksari qismida kichik biznesni rivojlantirish va jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyasini ta'minlashni asosiy vazifalar qatoriga qo'yadi.¹³

XULOSA VA TAVSIYALAR

Kichik biznesning xalqaro-maydonga chiqishi uchun asosiy yo'nalish biznesni faol kompyuterlashtirish va raqamlashtirishdir. Ishlab chiqarishdan oldingi bosqichda mahsulotning hayotiy sikli ortib borayotgan qismi virtual sohaga o'tishi sababli, yangi mahsulotlarni joriy qilish vaqt qisqaradi. "Raqamlashtirish" yo'liga kirgan birinchi kompaniyalar tajribasi mahsulotlarni yetkazib berish muddatlarining 50% ga qisqartirishini ko'rsatgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasini umumlashtirish asosida korxonalarning eksport salohiyatini rivojlantirish yuzasidan mamlakatimizda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- kichik biznes eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi maxsus tizimni shakllantirish;
- kichik biznes eksport faoliyatini kengaytirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish;
- kichik biznes tashqi iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishning qonuniy asoslarini yaratish;
- biznes yuritishning yangi shakllarini (autsorsing, kraudsorsing, franchayzing, lizing, elektron tijorat) ilgari surish;

10 Сергиенко Е. Е. Опыт стимулирования малого предпринимательства в странах АТР //Проблемы социально-экономического развития Сибири. – 2018. – №. 2. – С. 71–76.; Пономарева О. Роль государственной поддержки в развитии МСП: опыт экономик АТЭС //Вестник АТЭС. – 2017. – №. 5. – С. 16–22.; Раджабова З. К. Опыт стимулирования и поддержки экспорта в условиях кризиса //Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 3: Общественные науки. – 2016. – Т. 31. – №. 1. – С. 6–13. асосида тузилди.

11 National export initiative [Elektronnyy resurs]. URL: <https://ustr.gov/nei>

12 World Trade Report 2019. Levelling the trading field for SMEs [Elektronnyy resurs]. URL: https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/wtr16_e.htm

13 Пономарева О. Роль государственной поддержки развития малого и среднего предпринимательства: опыт экономик АТЭС // Вестник АТЭС. Издание Российского центра исследований АТЭС. 2017. №5. С.16–21.



- kichik biznesni davlat tomonidan moliyaviy, ma'muriy va axborot bilan ta'minlash, korxonalar tashqi aloqalarini raqamlashtirish tizmini yaratish.

Bu o'rinda raqamli texnologiyalarning mehnat bozoriga ta'siri bo'yicha ba'zi ma'lumotlarni keltirish o'rnlidir. Jumladan, texnologiyalar rivojlanishining hozirgi darajasida turli kasblarning 30 % vazifalari avtomatlashtirilishi mumkin. Ish joylarini raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida avtomatlashtirish natijasida jahon YalM 2030-yilga kelib 9 trln. dollarga ortishi kutilmoqda va bunday texnologiyalarni qo'llash natijasida jahon ishchi kuchining 14 % o'z kasbini o'zgartirishga majbur bo'ladi. Bu davrga kelib bank auditori, kredit muassasasi kabi kasblar deyarli to'liq avtomatlashtirilishi mumkin.

Jahonning eng mashhur kompaniyalari tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, ish o'rinalining avtomatlashtirilishi yoki robotlashtirilishi ularning qisqarishiga emas, ko'proq yangilanishiga sabab bo'ladi. Ko'p xollarda texnologiyalarning kirib kelishida infratuzilma, iqtisodiy, tartibga solish va ma'nnaviy to'siqlar ham mavjud bo'lishi mumkinligi hisobga olinmaydi. Jumladan, raqamli texnologiyalar tasvirni tanish, ovozni va boshqa biometrik ma'lumotlarni ajratish, bankrotlik extimolini baholash, texnikaning ishlashi jarayonida nosozliklarni aniqlash kabi tor doiradagi vazifalarni bajarmoqda. Raqamli tizimlar hozirgi paytda "qaytar aloqa"ni amalga oshirish qobiliyatiga ega emas, ya'ni foydalanuvchilarga u yoki bu qarorning mantig'inи tushuntirib bera olmaydi, bu esa sog'iqliqi saqlash, xavfsizlik va huquq kabi sohalarda insonning o'rnini bosa olmaydi.

Shu bilan birga texnologiya rivojlanishi bilan tarjimon, koll-markaz operatori, ekskursovodlar, notarius, ish yurituvchi, huquqiy maslahatchi, ma'muriy binolar qo'riqchisi kabi kasblarning qisqarib borishiga olib kelmoqda. Ularning o'rniga raqamli texnologiyalar sohasida qator yangi kasblar vujudga kelib, ta'lim tizimini mana shu kasb vakillarini tayyorlashga yo'naltirilishi zarur.

Texnologiyalarning rivojlanishi, kompaniyalarning raqamli o'zgarishi, ish joylari uchun raqobatning o'sishi va umr ko'rish davomiyligining oshishi xodimlarni hayot davomida o'z kasbiy faoliyatini bir necha bor o'zgartirishi, yangi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zaruriyatini keltirib chiqaradi. Mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun inson yangi bilimlarni avvalgiga nisbatan tezroq egallashi kerak. O'qitish uslublari qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim modellari o'zgartirilishi zarur. Bugungi kunda ta'lim oldida turgan asosiy muammolarga dinamik ravishda o'zgaruvchan mehnat bozori va inson extiyojlari talablariga javob beradigan ta'lim modelini yaratish, shuningdek, texnologiyalarni qo'llash orqali xarajatlarni kamaytirish kiradi.¹⁴

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarning tajribasiga tayangan holda kichik biznesning eksport faoliyatini rivojlanish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- Biznes yuritishning yangi shakllarini (franchayzing, lizing, elektron tijorat) ilgari surish;
- Kichik va o'rta biznesni davlat tomonidan moliyaviy, ma'muriy va axborot bilan ta'minlash, ayniqsa biznes va tashqi iqtisodiy aloqalarni raqamlashtirishga urinishlarni faol qo'llab-quvvatlash.

Foydalaniilgan adabiyotlar:

1. Kuliyev N. "Kichik va xususiy biznesni rivojlantirishda jahon tajribasidan foydalanish. "Iqtisod va ta'lim" ilmiy jurnal.- 2012. №4
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 28.01.2022-yildagi PF-60 farmoni <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Abduraxmanova G. Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. –Т. : "Iqtisodiyot"–2014. 114-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/1371>
5. Yusupov B. O'zbekistonda innovatsiya faoliyatini rivojlantirishda kichik tadbirdorlik imkoniyatlaridan foydalanish. TDIU mustaqil tadqiqotchi "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnal. №2-aprel, 2018-yil. www.interfinance.uz
6. Волкова А. И., Каравеев И. А. Факторы роста экспортного потенциала малого инновационного предприятия // Вестник Финансового университета. – 2016. – № 6. – С. 31–38.
7. Сичев М. С. Развитие методического обеспечения анализа и оценки экспортного потенциала предприятия: дис. ... канд. экон. наук. – Йошкар-Ола, 2012. – 156 с.
8. Сергиенко Е. Е. Опыт стимулирования малого предпринимательства в странах АТР //Проблемы социально-экономического развития Сибири. – 2018. – №. 2. – С. 71–76.; Пономарева О. Роль государственной поддержки в развитии МСП: опыт экономик АТЭС //Вестник АТЭС. – 2017. – №. 5. – С. 16–22.; Раджабова З. К. Опыт стимулирования и поддержки экспорта в условиях кризиса //Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 3: Общественные науки. – 2016. – Т. 31. – №. 1. – С. 6–13.
9. National Export Initiative [Elektronnyi resurs]. URL: <https://ustr.gov/nei>
10. World Trade Report 2019. Levelling the trading field for SMEs [Elektronnyi resurs]. URL: https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/wtr16_e.htm
11. Пономарева О. Роль государственной поддержки развития малого и среднего предпринимательства: опыт экономик АТЭС// Вестник АТЭС. Издание Российского центра исследований АТЭС. 2017. №5. С.16–21.
12. Global Education Future (2018) Образование для сложного общества. https://futuref.org/educationfutures_ru

14 Global Education Future (2018) Obrazovanie dlya slojnogo obchestva. https://futuref.org/educationfutures_ru

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.